

ZAVQIY SHE'RIYATIDA XALQ OG'ZAKI IJODI NAMUNALARINING O'RNI VA ROLI

Sotimboyeva Dilnura Axmedjon qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti Gumanitar fanlar fakulteti

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 2-bosqich talabasi

dilnurasotimboyeva@gmail.com

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada Ubaydulla Solih o'g'li Zavqiying ijodida xalq og'zaki ijodi bilan aloqador omillar xususida fikr yuritiladi va lirkasi xalq og'zaki ijodiga taqqoslanadi.

Kalit so'zlar: „Ahli rasta”, „Voqeai qozi saylov”, „Talading baring”, „Shohi Inoyat qo'rбoshi xaqida hajv”, „Obid mingboshi xaqida hajv”, „Veksel”.

XIX asr ikkinchi yarmi o'zbek adabiyotining demokratik xarakter kasb etishda xalq og'zaki ijodi bilan o'zaro uzviy aloqadorlik muhim omillardan biri bo'lib xizmat qiladi. Garchi yozma adabiyot paydo bo'lgandan beri xalq ijodiyotidan quvvat olib ikki tomonlama munosabatga kirishib kelayotgan bo'lsa-da, bu davrga kelib mazkur munosabat eng yuksak nuqtasiga ko'tarildi. Albatta, bu eng avvalo Muqimiy, Furqat va Zavqiy nomlari bilan belgilanadi.

Ubaydulla Solih o'g'li Zavqiyy ijodiy merosi son jihatidan u qadar katta raqamni tashkil etmaydi. Biroq keng jamoatchilikka ma'lum asarlarning o'ziyoq „Zavqiyy ijodida folbklor” masalasini atroflicha jiddiy o'rganish uchun yetarli manba bo'la oladi. Eslatib o'tish lozimki, bu mavzuga X.Razzoqov, G'.Karimov, A.Abdug'afforov, A.Jo'raxonov ilmiy tadqiqotchilarini inkor etmagan holda ularni to'ldirishga urinish, imkon doirasida davom ettirish foydadan holi bo'lmasa kerak.

O'zbek demokratik adabiyotining, xususan, Zavqiyy g'oyaviy-estetik tamoyillarining shakllanishida, xalq hayotini, orzu-istiklarini chuqur bilish, uning ezhulik va adolat tantanasini madh etgan, zulm va yovuzlikni, tengsizlik va jasoratni rad etgan badiiyatning namunalarini o'rganish muhim ro'л o'ynadi. Zavqiying realistik tasvir usuli xalq poeziyasining, jumladan xalq qo'shiqlarining hayot xaqiqatini ruyi rost aks ettirish xususiyatiga juda monand keladi:

Boylit xashlab keladi

Oti kishnab keladi.

Sho'ring qurgur kambag'al,

Boshin qashlab keladi! (Xalq qo'shig'i)

Zavqiyyda:

Kim tashna yor uchun, kimida ikki-uch xaram,

Birovi bevatunu, birovda bog'i-eram

Birovning so'zi zulfiqor, birovning qaddi xam!

(Zavqiyy, „Muncha ko'p” 120-bet)

Garchi har ikki she'r vazn jihatiga ko'ra keskin farq qilsada, g'oyaviy mazmunning birligi, badiiy tasvir vositalaridan foydalanishdagi bir xillik diqqatni jalb etadi. Zavqiyy xalq qo'shig'idagi g'oyani ilgari surgan holda, tasvir vositalarini

qo'llaganda ham shu qo'shiq usuliga ergashadi. Nisbatan murakkabroq tarzda kontrast usulidan foydalanib, tamomila zid hodisalarini yonma-yon keltiradi va shu orqali maqsadning ravshan va tasirli ifodalanishiga erishadi.

Xalq qo'shiqlari bilan Zavkiy she'rlari munosabatida g'oyaviy turli kulfat va baxtsizliklar sababini bilolmay, mohiyatini anglamay g'ayritabiyy kuchlarga murojaat qilganlar. O'z baxtsizliklarini ulardan bilib, nolish va shikoyatlar qilganlar.

Xalqning ilk badiiy tafakkurida aks etan bu shikoyat totivlari keyinroq yozma adabiyotda o'tib, mumtoz shoirlarimiz ijodiga chuqur singgan. Mazkur ananaviy motiv demokrat shoirlar, xususan, Zavqiy ijodida ham yaqqol ko'rindi. Biroq bu shikoyat endi mavhum tarzda umuman hayotdan emas, balki mavjud sharoitdan, konkret sotsial muhitdan norozilik ohangidan yangraydi.

Xalq qo'shig'ida:

Falak charxing buzilsin kimga zor etting meni,
Gohi boru, gohi yo'qqa intizoru etting meni.

Zavqiyda:

G'aldor falak sitam nishona
Kajdor, mariz, ey zamona!

(„Kajdor zamona”, 24-bet)

Yoki:

Charxi kajrav, shum zamona illati qilgach asar,
Ahli donish ko'zlariga tiyra buldi ro'zlar.

(„Dar mazammati zamona”, 13-bet)

Xalqqa nisbatan zulm qiluvchilarga o'z munosabatini, nafratini ifodalashga satiradan unumli foydalanib kelgan. Xalq ijodiyotiga mansub juda ko'p asarlarda poraxo'r qozilar, fosih eshonlar, xiylakor, makkor shariat peshvolari achchiq, zaharxanda kulgi ostiga olinadi. Folklordagi bu analalarni ham demokrat shoirlar ijodiy o'zlashtirdilar va bu janrni beqiyos yuksaklikka ko'tardilar. Mavjud tuzumdan shikoyat qilishning o'zi bilan chekhanish kurashning g'oyat passiv usuli edi. Satira esa adabiy kurashning eng tasirchan shakllardan biri ediki, democrat shoirlar, xususan, Zavqiy ham buni to'la anglab yetadi. Zavkiy ijodiy merosida satiraning mumtoz namunalari mavjud. „Ahli rasta”, „Voqeai qozi saylov”, „Talading baring”, „Shohi Inoyat qo'rboshi xaqida hajv”, „Obid mingboshi xaqida hajv”, „Veksel”, „Afandilar”, „Ajab zamona”, „Muncha ko'p”, „Zamona kimniki” kabilar shular jumlasidandir. Zavqiyning „Hajvi Ahmadxo'ja qozi ba tariki tarix”, „Voqeai qozi saylov” asarlarida o'z davrining konkret voqealari va konkret kishilari qalamga olinadi. Lekin shoir o'z zamonasining huquq tartiboti va bu ishni amalga oshiruvchi nazoratchilar haqida umumlashma tushuncha bera oladi. Poraxo'r, takabbur qozilar haqida so'z yuritar ekan, Zavqiy shu mavzudagi xalq ertaklari, latifalari, maqol va matallar, iboralardan bevosita oziqlanadi. Bu xususiyat qayd etilgan asarlarda har jihatdan yaqqol namoyon bo'lgan. Masalan, "Voqeai qozi saylov" satirasi birinchi baytidanoq folklor asarlari: ertak va dostonlar muqaddimasiga xos tarzda boshlanadi.

Siz eshitsangiz, ahli Farg'ona

Aytayin bir ajoyib afsona. (55-bet)

Asarning mazmunli, g'oyaviy jihatlari „Tuxmatchilar jazosi” o'zbek xalq ertagi va xalq orasida juda ko'p va keng tarqalgan qozilar haqidagi latifa ham maqol-u

matallarni esga solidi. Diqqatni tortadigan nuqta shundaki, mazkur asar mazmunidan tashqari, badiiy xususiyatlari ko‘ra ham folklor namunalariga juda yaqin keladi. Avvalo, asar xalq qo‘shiqlari, termalar kabi yengil o‘qiladi, misralar sodda va ravon so‘z tartibiga ega, ikkinchidan, asar voqeasi kichik voqeatchalar asosida folklordagi ertak va doston kompozitsion qurilishga xos qoliplash usulida rivojlantiriladi, uchinchidan, xalq maqollari asar tarkibiga mahorat bilan singdiriladi.

Masalan:

Degaylar ko‘ngulga jo bo‘lsa havas,
Har ishda odami tinchimas birpas.

(55-bet)

Yana:

Demadimkim iroda kor nadur,
Bor taqdir, ixtiyor nadur.

(56-bet)

Yana:

Bu masalkim otalmasa sopqon,
Boshi (keti) ga tegar otgan on.

(60-bet)

To‘rtinchidan, xalq orasidagi frazeologik birikmalar, iboralardan o‘rni bilan foydalandi. Masalan: „baayni bir mag‘zu po‘st” kabi. Bundan tashqari Zavqiy asarlarida folklor syujet va motivlariga qiyoslarni ham ko‘plab uchratish mumkin.

Masalan:

Kishi boqmas jigar, hamsoyasiga,
Qochib shafqatki Anko soyasig‘a

(„Qahatchilik”, 82-bet)

Do‘sti hamnafas qayda oshnogan o‘rgangan?

Suhbati Masixoso kim davoga o‘rgangan?

(„O‘rgangan”, 81-bet)

Ul edi firavn, bu xamon anga

O‘tdi qilib ikkisi kengoshini

(“Dar hajvi Shox Inoyat qo‘rboshi”, 45-bet)

Firibgarlikda tanxo, Dog‘ulivash yo Kamak nasli

(„Abduraxmon shayton”, 51-bet)

kabilar.

Zavqiy asarlarida yana o‘zbek xalq ijodining betakror „Askiya” janriga xos xususiyatlarni ham kuzatish mumkin. Masalan shoir „Hajvi axli rasta” satirasida rasta korchalonlarini tasvirlar ekan, askiya payrov usullariga murojaat etadi. Shuni alohida ta’kidlaash lozimki, Zavqiy mazkur she’rda bilvosita etnografiyaga oid, o‘zbek xalqining tamomila o‘ziga xos maishiy turmushiga doir juda ko‘p materiallarni ham o‘xhatish asnosida keltirib o‘tgan.

Alamni(ng) o‘g‘illari Olimjon,
Hayf tun bila salsa gungalakka,
El anin(ng) akasin o‘xhaturlar
Burnini sumak, og‘zini tuvakka,
Ellikboshi o‘gli mokiyanboz

Ustoz bo'libdi kurkurakka.
Tabingni arbosini to'xtat,
Shotisini bog'la g'ildirakka.

(38-41-betlar)

Umuman, Zavqiy asarlaridan xalq ijodiyotining nafaqat so'z sanatida, ayni zamonda, tomosha sanati, musiqa sanatiga mansub ma'lumotlarni ham ilg'ash mumkin. Masalan, shoир „Bo'l" radifli sotsial mazmundagi she'rida o'zbek xalq tomosha sanatining dorbozlik turini tashbih orqali tilga olib o'tadi.

Axli dil bo'lma, zamonning boyi bo'l, bazzozi bo'l!
Aqchadan langar cho'p ushlab rastanining darbozi bo'l!

(15-bet)

Ko'rinaridiki, Zavqiy ijodi „Folklor va adabiyot" masalasi aspektida juda boy material beradi. Shoирning deyarli har bir asarida xoh u hajviy asar bo'lsin, xoh lirika bo'lishidan qati nazar xalq og'zaki ijodiga, umuman, xalq estetikasiga oid ma'lumotlarni uchratish mumkin. Bu hol Zavqiyni tom ma'noda xalq shoiri deb baholash uchun yana bir karra to'la asos beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. N.Qobulov, V.Mo'minov, I.Haqqulov „Avaz va uning adabiy muhiti". Toshkent 1987-yil.
2. B.Qosimov „Izlay-izlay topganim" T,1983-yil.
3. WWW.Ziyonet.uz.
4. WWW.Wiki.Arxiv.uz.Zavqiy.HTML.